

**TALABALARNING MUSTAQIL ISH JARAYONIDA INTERFAOL TA'LIM  
METODLARINING TUSHUNCHASI VA AHAMIYATI**

**Yulchiyeva Dildora,**

*UBS “Ijtimoiy-gumanira” kafedrasida dotsenti,  
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*  
[yulchiyevad@gmail.com](mailto:yulchiyevad@gmail.com)

**Zarnigor Ziyodullayeva,**

*UBS Pedagogika magistratura mutaxassisligi 2-kurs talabasi*  
[zarnigor@mail.ru](mailto:zarnigor@mail.ru)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarning mustaqil ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda interfaol ta'lim metodlarining mazmuni, o'rni bilan amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Mustaqil ishning pedagogik mohiyati va interfaol metodlar orqali talabalarni faollashtirishga motivatsiya berish va kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari yoritildi.

**Kalit so'zlar:** interfaol, ta'lim, metod, pedagogik, jarayon, Mustaqil, O'quvchi, asosiy, talabalar, faol, dars, fikr, murakkab, mavzu, muassasa, mohiyati, kompetensiya.

**Аннотация.** В статье анализируются содержание, роль и практическое значение интерактивных методов обучения в эффективной организации самостоятельной работы студентов. Раскрываются педагогическая сущность самостоятельной работы и возможности мотивации студентов к активизации и развитию их компетенций посредством интерактивных методов.

**Ключевые слова:** интерактивный, образование, метод, педагогический, процесс, самостоятельный, учащийся, базовый, студенты, активный, урок, идея, комплекс, тема, учреждение, сущность, компетентность.

**Annotation.** This article analyzes the content, role and practical significance of interactive teaching methods in the effective organization of students' independent learning process. The pedagogical essence of independent work and the possibilities of motivating students to activate and developing their competencies through interactive methods are highlighted.

**Keywords:** interactive, education, method, pedagogical, process, Independent, Learner, basic, students, active, lesson, idea, complex, topic, institution, essence, competency.

**Kirish.** Bugungi globallashtirish davrida ta'lim tizimi oldiga talab qilinayotgan asosiy masalalardan biri - talabalarni mustaqil o'quv faoliyatini takomillashtirishdir. Yangi pedagogik texnologiyalar, asosan interfaol ta'lim metodlari, ta'lim jarayonida talabalarning faolligini oshirib, ularni axborotni qidirish, tahlil qilish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvga undaydi.

Interfaol ta'lim metodlari - bu o'quv jarayonida o'quvchining bilimni passiv qabul qilmaydi, faol izlanishga, fikrlashga, muammoni hal qilishga, muloqot va hamkorlikni o'rganishga yo'naltirilgan o'qitish strategiyalaridir. Ushbu metodlar o'qituvchi va talaba o'rtasida ikki tomonlama hamkorlikni ta'minlash, o'quv jarayonini yordami bilan muloqotga, guruh faolligiga asoslaydi. Interfaollikning mazmunli mazmuni - "hamkorlikda o'rganish" talabiga tayanib, mustaqil fikr bilan qaror qaror qabul qilish, mazmunini chuqur tahlil qilish va real imkoniyatlarga ijodiy

imkoniyatlarni rivojlantirishdir. Ushbu metodlar o‘quv jarayonini tizimli, dinamik va interaktiv shaklda yaratadi, an’anaviy bilim berishda faol kompetensiyalarni shakli.

Talabalarning mustaqil ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish - bu nafaqat bilim olish, balki o‘z-o‘zini rivojlantirishga xizmat qiladigan eng asosiy pedagogik mexanizmdir. Bunda interfaol metodlarning tutgan o‘rni beqiyosdir.

Mustaqil ish tushunchasi va uning o‘quv jarayonidagi roli. Mustaqil ish – o‘quvchining darsdan tashqari vaqtda, o‘qituvchi boshchiligida, o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirishi uchun bajaradigan mustaqil ish faoliyatidir. O‘quv jarayonidagi o‘rni esa, o‘quvchining chuqurroq va kengroq bilim olishi, ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, o‘z-o‘zini nazorat qilish, mas’uliyatni his etishini shakllantirishi hamda zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun kerakli bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bu o‘quv jarayonining bir bo‘lagi bo‘lib, o‘quvchi o‘z bilim va ko‘nikmalarini mustaqil ravishda kengaytirishga qaratilgan faoliyatdir. O‘quvchi o‘z ishi uchun mas’uliyatni his etadi, o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriqlarni mustaqil va vaqtda bajaradi. Mustaqil ishning maqsadi – o‘quv dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish, ularni tajribada qo‘llashni o‘rganish. Bu jarayon o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga hamda osonroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Chuqur bilim. Mustaqil ish orqali o‘quvchi o‘zi qiziqqan mavzularni yanada chuqurroq va kengroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ko‘nikmalarni rivojlantirish. O‘quvchi o‘z-o‘zini rivojlantirish, muammolarni mustaqil hal qilish va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Mas’uliyatni his etish. Mustaqil ishlar o‘quvchiga o‘z harakatlari uchun mas’uliyatni.

O‘z-o‘zini nazorat qilish. O‘quvchi o‘zini-o‘zi nazorat qilish va baholash, o‘zini ustida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Zamonaviy jamiyatga tayyorgarlik. Mustaqil o‘rganish qobiliyati zamonaviy jamiyatda zamon bilan teng yashash va ishlash uchun zaruriy ko‘nikma hisoblanadi.

Interfaol ta’lim metodlarining tushunchasi. Interfaol ta’limning asosiy tamoyil, shakl va omillari. Interfaol ta’lim metod jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlaridan foydalanish dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta’limning asosiy mezonlari. norasmiy bahs-munozaralar o‘tkazish, o‘quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyati, ma’ruzalar kamligi, ammo seminarlar soni ko‘pligi, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun topshiriqlar berish, yozma ishlar bajarish va boshqa

metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

**Muhokama va natijalar.** Interfaol mashg‘ulot samaradorligi omillari. Hozirda ta‘lim metodlarini takomillashtirish sohasidagi asosiy yo‘nalishlardan biri interfaol ta‘lim va tarbiya usullarini tadbiiq qilishdan iborat. Barcha fan o‘qituvchilari dars mashg‘ulotlari jarayonida interfaol usullardan borgan sari kengroq foydalanmoqdalar. Interfaol usullarni qo‘llash natijasida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, o‘z fikrini bayon qilish, uni asoslagan holda himoya qila bilish, sog‘lom mulot, munozara, bahs olib borish ko‘nikmalari shakllanib, rivojlanib boradi. Bu masalada amerikalik psixolog va pedagog B.Blum bilish va emotsional sohalardagi pedagogik maqsadlarning taksonomiyasini yaratgan. Muammoli ta‘limni amaliyotda qo‘llash asosiy masalalardan biri o‘rganilayotgan mavzu bilan bog‘liq muammoli vaziyatlarni yaratishdan iborat. Turli o‘quv fanlari bo‘yicha o‘qituvchilar darslar jarayonida muammoli vaziyatlar hosil qilishni va ularni yechish usullarini oldindan nazarda tutishlari kerak. Shunday muammoli texnologiyalardan biri “Aqliy hujum”dir. “Aqliy hujum” biror muammo bo‘yicha ta‘lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr-mulohazalarni to‘plab, ular orqali natijada ma‘lum bir yechimga kelinadigan metoddir. "Aqliy hujum" metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud. Og‘zaki shaklida ta‘lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta‘lim oluvchilarning har birining o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklida esa berilgan savolga ta‘lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz varaqcha (kartochka)lariga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Ta‘lim oluvchilarda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baho ololmasligi ta‘lim oluvchilarda turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi.

"Aqliy hujum" metodining o‘tkazilish tartibi quyidagilardan iborat.

1. Ta‘lim oluvchilar e‘tiboriga savol tashlanadi va ular shu savol bo‘yicha o‘z javoblarini (fikr, g‘oya va mulohaza) bildirishlari so‘raladi.
2. Ta‘lim oluvchilar savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishadi.
3. Ta‘lim oluvchilarning fikr-g‘oyalari to‘planadi.
4. Fikr-g‘oyalar ma‘lum belgilar bo‘yicha guruhlanadi.
5. Yuqorida qo‘yilgan savolga aniq va to‘g‘ri javob tanlab olinadi. Bu metod ta‘lim oluvchilarda ijodiy tafakkurat rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

"Aqliy hujum" metodi ta‘lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi, ya‘ni.

- Ta‘lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yilganda, bu metod esa darsning mavzusiga kirish qismida amalga oshiriladi.
- Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad

qilib qo'yilsa, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi.

•O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda esa, mavzudan so'ng darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.

"Blits-so'rov" (ingliz tilidan olib "blits" tezkor, bir zumda degan ma'noni bildiradi) metodi berilgan savollarga qisqa, aniq va lo'nda javob qaytarilishini taqozo etadigan metod sanaladi. Ta'lim sohasida ushbu metodga muvofiq savollar, asosan, o'qituvchi tomonidan beriladi. Berilgan savollarga javoblar jamoaviy, guruhli, juftlik yoki individual tarzda qaytarilishi mumkin. Javob qaytarish shakli mashg'ulot turi, o'rganilayotgan mavzuning murakkabligi, talabalarning qamrab olinishiga ko'ra belgilanadi.

"Savol-javob zanjiri" - bu o'quvchilarning bir-biriga mantiqan bog'liq savol va javoblar ketma-ketligini yaratishga asoslangan o'quv metodidir. Bu usul o'quvchilarning fikrlash tezligini va bog'liqlikni bilishini oshiradi. Shuningdek, "savol-javob" metodi o'yinlar yoki dars jarayonining bir qismi sifatida ham qo'llanilishi mumkin.

Ma'nosi. Bu usulda bir o'quvchi savol beradi va ikkinchi o'quvchi javob berib, keyin o'zi savol beradi, shu tariqa savol-javoblar bir-birini bog'lab ketadi.

Misol. 1-o'quvchi. "Katta". 2-o'quvchi. "Zidi nima?". 3-o'quvchi. "Kichik". Keyingi o'quvchi. "Gap". 4-o'quvchi. "So'z" va hokazolar bilan davom ettiradi.

**Qo'llanilishi.** Bu usul ko'pincha darsliklarda o'quvchilarning bilimini mustahkamlash, mavzuni chuqurroq o'zlashtirish va faol ishtirokini ta'minlash uchun qo'llanadi.

"Baliq skeleti" metodi - muammoning asosiy sabablari va oqibatlarini tizimli tahlil qilish uchun yaratilgan grafik metod. Uni yapon olimi Kaoru Ishikava ishlab chiqqan. Diagramma baliq skeletiga o'xshab tuziladi.

Bosh qismiga - yakuniy muammo (oqibat) yoziladi.

Yon tarafiga katta suyaklarda - sabablar toifalari beriladi (masalan. odam, uskunarlar, material, muhit, boshqaruv, uslub).

Kichik suyaklarda - sabablarning aniq variantlari yoziladi.

#### **Metodning maqsadi.**

Muammoni ildiz sabablariga qarab chuqur tahlil qilish.

Jamoaviy fikrlash orqali muammoni bosqichma-bosqich o'rganish.

Sabab-oqibat zanjirini aniqlab, amaliy yechimlar ishlab chiqish.

#### **Metodning qo'llanish bosqichlari.**

1. Muammo aniq va qisqa ifodalanadi.
2. Baliq skeleti chiziladi va muammo "bosh"ga yoziladi.
3. Sabab toifalari belgilanadi.
4. Har bir toifalarga tanqidiy savollar berilib, sabablar yozib boriladi.

5. Sabablar tahlil qilinadi va asosiy ildiz sabab tanlanadi.
6. Yechimlar ishlab chiqiladi.

**Afzalliklari.** Muammoni murakkab jihatlarini tartib bilan ko‘rsatadi.

Tizimli fikrlashni rivojlantirish.

Guruhda ishlashni faollashtiradi.

Yechimlar aniq va asoslangan bo‘ladi.

Qo‘llanish maydonlari. Ta‘lim, ishlab chiqarish, sog‘liqni saqlash, boshqaruv, biznes, psixologiya, pedagogik tahlil. “Klaster” metodi (Cluster Technique)

**Mazmuni va mohiyati.**

Klaster - bu g‘oyalar, tushunchalar va ma‘lumotlarni mazmuniy yaqinligiga ko‘ra ajratish orqali mavzuni chuqur yoritish metodidir. U erkin fikrlashga asoslanadi. O‘rtaga asosiy tushuncha yoziladi, undan tarqalgan kichik doiralar orqali mavzuning tarkibiy qismlari ko‘rsatib boriladi.

Bu metod o‘quvchilarning miyasida “g‘oya xaritasi” hosil bo‘lishiga yordam beradi.

**Maqsadi.**

Yangi mavzu bo‘yicha g‘oyalarni tez yig‘ish.

Ma‘lumotlarni guruhlash va tizimlashtirish.

O‘quvchilarni ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish.

Qo‘llanish bosqichlari

1. O‘rtaga asosiy mavzu yoki tushuncha yoziladi.
2. O‘quvchilar shu mavzuga oid barcha g‘oyalarni berish.
3. G‘oyalar guruhlarga ajratiladi.
4. Guruhlar orasidagi bog‘liqlik chiziladi.
5. Xulosa chiqariladi.

**Afzalliklari.**

- O‘quvchilar muloqot va fikr almashuvga jalb etiladi.
- Mavzuning ichki tuzilishi ko‘rinadi.
- Katta hajmga ega ma‘lumotni tezda tartibga soladi.
- Darsni boshlashda yoki yakunlashda samarali.

**Qo‘llanish holatlari.**

Yangi mavzu bilan tanishtirish.

O‘tilgan mavzuni umumlashtirish.

Maqola, reja yoki g‘oya ishlab chiqish jarayoni.

“Konseptual xarita” metodi (Concept Map)

**Mazmuni va mohiyati.**

Konseptual xarita - bu tushunchalar, faktlar va g'oyalar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni grafik ko'rinishda ifodalovchi diagramma. U ilmiy bilimlarni strukturaviy ko'rinishga keltirib beradi.

**Xaritada.**

Asosiy tushunchalar tugunlar (blok) sifatida beriladi. Tushunchalar chiziqlar bilan bog'lanadi. Chiziqlar ustiga aloqa mazmuni yoziladi (masalan. "ta'sir qiladi", "tarkibiga kiradi", "vujudga keltiradi").

**Maqsadi.**

- Murakkab mavzularni tizimli tushuntirish.
- O'quvchilarda mantiqiy, tizimli va tahliliy fikrlashni rivojlantirish.
- Tushunchalar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash va o'rgatish.

**Qo'llash bosqichlari.**

1. Asosiy mavzu tanlanadi.
2. Mavzuga oid asosiy tushunchalar ajratiladi.
3. Tushunchalar tartib bilan joylashtiriladi (yuqoridan pastga yoki chapdan o'ngga).
4. Tushunchalar chiziqlar bilan bog'lanadi.
5. Har bir bog'liqlik sharhlanadi.
6. Tayyor xarita asosida muhokama yoki taqdimot qilinadi.

**Afzalliklari.**

- Murakkab tizimlarni aniq ko'rsatadi.
- O'quvchilarning tahliliy fikrlashini kuchaytirib beradi.
- Darsni oson tushunishga yordam beradi.
- Uzoq muddatli xotirani faollashtiradi.

**Qo'llanish sohalari.**

- Pedagogika, psixologiya, biologiya, tarix, texnika fanlari.
- Reja tuzish, tadqiqot qilish, ma'ruza tuzish jarayonlari.

4. Mustaqil ish jarayonida interfaol metodlarning ahamiyati salby kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari. Pedagogik va psixologik adabiyotlarda "kompetensiya" tushunchasi turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, umumiy mazmun jihatidan u insonning muayyan faoliya samarali ishlashi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikma, malaka hamda shaxs sifatlarning uyg'unligidan iborat deb e'tirof etiladi. Kasbiy kompetensiya esa umumiy kompetensiyalarning professional faoliyatga yo'naltirilgan shaklidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "Ta'lim tizimini yanada takomillashtirish va kasb-hunar ta'limi sifatini oshirish chor tadbirlari to'g'risida"gi PQ-81-sonli qarorida ham kasbiy kompetensiyalar shakllantirish zarurati alohida ta'kidlangan. Unda ta'lim muassasalarida amaliyotga yo'naltirilgan, kasbga tayyorlov jarayonini takomillashtirish borasida aniq vazifalar belgilab berilgan.

O‘zbekistonda qabul qilingan milliy malaka ramkasi (MMR)ga ko‘ra, kasbi kompetensiyalar quyidagi tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi.

**Xulosa.** Talabalar mustaqil ish jarayonida interfaol ta‘lim metodlaridan foydalanishi zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biri bo‘lib, ta‘lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Interfaol metodlar – bu talabaning faol fikrlashi, mustaqil izlanishi, amaliy muammolarni yechishga yo‘naltirilgan kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar jamlanmasi. Ushbu metodlar nafaqat bilimlarni o‘zlashtirishni chuqurlashtiradi, balki talabalarda kommunikativ, refleksiv, ijodiy, axborot bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantir uchun ham zarurdir. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlarni mustaqil ish jarayoniga joriy etish talabalarning ishtiyoqini kuchaytiradi, o‘quv jarayoniga bo‘lgan mas‘uliyatini oshiradi va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini shakllantiradi. Xususan, “Baliq skeleti”, “Klaster”, “Konseptual xarita”, “Aqliy hujum”, “Debat”, “Loyiha” kabi interfaol yondashuvlar talabaning dars mazmunini chuqur tahlil qilish bilish, turli manbalardan ma‘lumot qidirishga, bilimlarni tizimlashtirish va ularni amaliy faoliyatda qo‘llash qobiliyatlarini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, interfaol metodlarga asoslangan mustaqil ish talabalarda tanqidiy va mantiqiy fikrlash jarayonlarini faollashtirib, o‘quv jarayonining subyekti sifatida ularning o‘rni va mas‘uliyatini oshiradi. Bu esa, o‘z navbatida, zamonaviy ta‘limning kompetensiyaga yo‘naltirilgan modeliga to‘liq to‘g‘ri keladi. Interfaol metodlardan foydalanish natijasida talabalar axborotni passiv qabul qiluvchidan faol bilish subyektiga aylanib, o‘quv jarayonining faol tashkilotchisi bo‘lishga intilishi oshadi.

Umuman olganda, talabalarning mustaqil ish jarayonida interfaol ta‘lim metodlarining qo‘llanilishi ta‘lim sifatini oshirish, didaktik kompetensiyalarni rivojlantirish, talabaning shaxsiy hamda kasbiy kamolotiga erishishda muhim omil bo‘lib xizmat qilib beradi. Bu esa pedagogik jarayonda interfaol metodlardan oqilona va tizimli foydalanish zaruriyatini yanada oshirib beradi.


1. Pedogoglarning kreativ metodlardan foydalanishi uchun maktab darsliklariga mantiq fan saotlarini kiritish.
2. Kreativ metodlardan foydalanish bo‘yicha internet saytlarida (telegram, facebook, youtube) online darslar tashkil etish.
3. Interfaol ta‘lim metodlarni barcha pedagogik yunalishlarga kiritish

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Mengliyev, Bobur Normamatovich, CC BY 5718
2. [https://www.google.com/search?q=Mustaqil+ish+tushunchasi+va+uning+o%28%80%98quv+jarayoni+dagi+roli&oq=Mustaqil+ish+tushunchasi+va+uning+o%28%80%98quv+jarayonidagi+roli&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOdIBCTY0OTRqMGoxNagCCLACAfEF6yo3AodfBzk&sourceid=chrome&ie=UTF-8](https://www.google.com/search?q=Mustaqil+ish+tushunchasi+va+uning+o%28%80%98quv+jarayoni+dagi+roli&oq=Mustaqil+ish+tushunchasi+va+uning+o%28%80%98quv+jarayonidagi+roli&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOdIBCTY0OTRqMGoxNagCCLACAfEF6yo3AodfBzk&sourceid=chrome&ie=UTF-8)

**“XXI ASRDA TARIXIY ONG, FALSAFIY TAFAKKUR, PEDAGOGIK  
VA LINGVOMADANIY YONDASHUVLAR”**  
XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

3. Alijon Xayrulloevich Avezov, Aziza Nazirjon Qizi Amrullayeva, Maftuna Mizrob Qizi Namozova
4. <https://cyberleninka.ru/article/n/aqliy-hujum-va-keys-study-metodlari-yordamida-funksiya-hosilasi-mavzusini-o-qitish/viewer>
5. <https://arxiv.uz/uz/documents/slaydlar/pedagogik-psixologiya/interfaol-metodlar-5>
6. Internet saytlar



UNIVERSITY  
OF BUSINESS  
AND SCIENCE